

0'zbekiston Xalqaro Taqsimlangan Fizika Olimpiadasida bronza medalini qo'lga kiritdi.

7-15 dekabr kunlari Xalqaro taqsimlangan Fizika Olimpiadasi (The International Distributed Physics Olympiad, IdPhO) masofaviy tarzda bo'lib o'tdi. Jahonning 57 ta mamlakatidan 285 nafar o'quvchi ishtirok etgan mazkur olimpiadada IPHO-2020 uchun saralangan milliy terma jamoa a'zolari ishtirok etdilar.

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti o'qituvchisi Doniyor Babajanov terma jamoa rahbari sifatida o'quvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilib, ularni mazkur xalqaro olimpiadaga tayyorladi.

Mazkur olimpiadada O'zbekiston sharafini besh nafar iqtidorli o'quvchi himoya qildi. Jamoamiz a'zosi Rail Xashaev faxrli 3-o'rinni egallab, bronza medali sohibi bo'ldi.

Bronza medali O'zbekiston ahliga muborak bo'lsin!

Bizning hayriya aktsiyamizga qo'shiling!

Yangi yilda yaxshilik qilishni hohlaysanmi? Unda bizning hayriya aktsiyamiz aynan siz uchun!

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti yoshlar ittifoqi va ko'ngilli yoshlari tomonidan 22- dekabr kuni

“Xlebushkina” nomli bolalar uyiga borishni tashkillashtirildi.

“Bir dona shirinlik harid qil va bir bolaga baxt ulash” aktsiyamiz 2 kun 16-17 dekabr kunlari o‘tkaziladi. Agarda sizni ishtrok etish uchun imkoniyatingiz bo‘lmasa, siz hohlaganCHA miqdordagi pulni kartadan yuborishingiz va bolalarni yangi yil mo‘jizasi bilan hursand qilish imkoniyati bor.

Yeg‘ilgan pullarga biz:

- Sovg‘alar olamiz
- Bolalar uchun shaxsiy gigiyena vositalarini sotib olamiz
- Talabalarimiz tomonidan yozilgan niyatlar to‘la hatlarni yetkazamiz.

Biz bilan birgalikda yaxshilik qiling♥☐

TTPU da “Qizlar ijod kechasi” bo‘lib o‘tdi

Yurtboshimiz tomonlaridan ta‘kidlanayotgan masalalardan biri bu xotin-qizlar bilan ishlash, ularning ko‘nikmalarini oshirish va ish bilan ta‘minlashga qaratilgan chora tadbirlar va dasturlardir. Hozirda aynan shu mavzu oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarimizdan biri desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Bunga 4-dekabr kuni Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida universitet Xotin-qizlar kengashi tomonidan o‘tkazilgan ijodiy kecha yaqqol misol bo‘la oladi. Ijodiy kechada Universitetimiz va uning qoshidagi akademik litseyning talaba qizlari o‘z iqtidorlarini yuksak darajada namoyon etdilar. Qizlar tomonidan she‘rlar, kuy va qo‘shiqlar ijro etildi hamda biserda yasalgan qo‘l mehnati namunalari va foto

ko'rgazmalar namoyish etildi.

Tadbirda mehmon sifatida taklif etilgan P. Benkov nomli san'at maktabi katta o'qituvchisi o'z iqtidorli talabalari bilan matoga bo'yoq chizish bo'yicha mahorat darslarini o'tib berishdi va bu orqali qizlarimizning yana bir yashirin iqtidorlari namoyon bo'ldi.

“Nova Robotics” jamoasining 196-maktabga safari

Bugun UZREPORT TV telekanalida Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti “Nova Robotics” jamoasining robototexnika bo'yicha mahorat darslari o'tkazish uchun 196-maktabga yo'l olgani haqidagi lavha namoyish etildi.

“Qishki IT-Oromgoh”

Qishki ta'til yaqinlashmoqda! Agar sizni farzandingiz o'z ta'tilini unumli o'tkazishini istasangiz, unda bu yangilik aynan siz uchun!

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti tashabbusi bilan 25-dekabrden 30-dekabrgacha “Qishki IT Oromgoh” tashkil etilmoqda.

Oromgohda farzandingiz :

- Robototexnika
- Dasturlash

-Grafik dizayn□

-3D modellashtirish□

-Videoni tahrirlash kabi□

yo'nalishlardan dars olib, robotlarni yig'ish va ularga dastur yozishni o'rganadilar. Shu bilan birga kunning ikkinchi yarimida lagerda:

-intellektual o'yinlar□

-sport musobaqalari□

-ko'ngilochar o'yinlar□

hamda robot janrlari□ ham bo'lib o'tadi.

Shuningdek, oromgoh dasturi so'ngida har bir ishtirokchi:

-ajoyib va unutilmas sovg'alar□

-universitet rektori nomidan sertifikat□

va eng asosiysi kerakli bilimlarga□ ega bo'ladi!

Ishtirokchilar soni cheklangan □□□□□□

Ro'yxatdan quyudagi ilova orqali o'ting.

<https://forms.gle/7XHznUZNNMqx1S5f7>

“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlab Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida 9-dekabr kuni “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturi o'tkazildi. Konsert ulug' madhiyamiz sadolari bilan boshlandi. O'tmishimiz, bugunimiz va albatta porloq kelajagimiz aks etgan video rolik barchani ta'sirlantirdi. Jonli ijroda talabalarimiz tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va raqslar guldastasi zalga yig'ilgan mehmonlarni ham raqsga chorladi.

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti va 196-sonli maktab o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoselektorda belgilab o'tilgan vazifalar ijrosiga hamda Oliy ta'lim muassasalariga o'rta ta'lim maktablarini biriktirish va ularni ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish bo'yicha 2020 yil 22 noyabr kuni Bosh Vazir o'rinbosari Musaev B.A. rahbarligida bo'lib o'tgan Ishchi guruh majlisi 3-son Bayoniga muvofiq **Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetiga (TTPU) Olmazor tumanidagi 196-umumta'lim maktabi otalig'iga olish uchun biriktirib berildi.**

Shu asnoda, TTPU 196-umumta'lim maktabi bilan hamkorlik ishlarini boshlab yubordi.

30 noyabr – 1 dekabr kunlari **maktab professor-o'qituvchilari TTPUga tashrif buyurishdi** va ularga universitet mas'ul xodimlari tomonidan universitet faoliyati, ta'lim tizimi va dars o'tish metodikalari xaqida qisqacha ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, TTPU xodimlari maktab ma'muriyati tomonidan **tashkil etilgan "8-dekabr – Konstitutsiya kuni"**ga bag'ishlangan **"Konstitutsiya mening taqdirimda"** ko'rik tanlovida mehmon

sifatida ishtirok etishdi va maktab iqtidorli o'quvchilariga universitet nomidan esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Endilikda TTPU va Italiya tajribasi asosida ushbu maktab faoliyatini takomillashtirish masalasida:

- Universitet professor-o'qituvchilarining salohiyati va tajribalaridan foydalangan xolda maktab fan o'qituvchilariga ilg'or o'qitish uslublarini o'rgatish;
- Ularni "Ingliz tili" ko'nikmalarini va malakalarini oshirish uchun "Master-klass" formatida leksiya, seminarlar tashkil etish;
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish;
- Birgalikda turli hil tanlovlar va fan olimpiadalarini o'tkazish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish kutilmoqda.

“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturimizga taklif etamiz!

□ Hurmatli TTPU talabalari, professor-o'qituvchilari va hodimlari!

Barchangizni 8-dekabr Konstitutsiya kuni munosabati bilan Universitetimiz konferensiyalar zalida 9-dekabr kuni soat 12:00da bo'lib o'tadigan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturimizga taklif etamiz! □□□

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi muassisligidagi Respublika Yosh huquqshunoslar Kengashi tomonidan tashkil etilgan bu tadbirda

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi yoshlarining chiqishlari, kuy va qo'shiqlar joy olgan.

□Barchangizni bayram dasturimizga chorlab qolamiz!□

KONSTITUTSIYA – ADOLAT MEZONI

Hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o'zlarining erkin siyosati, tili, davlat ramzlariga ega. Ammo ularning hammasi ham o'z konstitutsiyasiga egaemas. Milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ham egaekanligi bizning baxtimiz albatta.

Ulug' ajdodlarimizning asriy armonlari, erkinhayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek eng ezgu tilaklar va ulug' orzularini o'zida mujassam etgan Davlatimiz Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar uchun mustahkam asos va dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugun 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabulqilinganiga 28-yil to'ldi. Shu munosabat bilan Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti barchangizni ushbu sana bilan muborakbod etadi. Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin. Doimo yurtimiz tinch va osmonimiz musaffo bo'lsin. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi xalqimiz farovonligi uchun xizmat qilsin.

Konstitutsiya bayramingiz muborak bo'lsin, azizlar!

Fransiyaning “Assystem Engineering and Operation Services” kompaniyasi TTPU talabalariga katta qiziqish bildirmoqda

“Assystem Engineering and Operation Services” vakillari Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurib, talabalarni o'qitish metodikasiga katta qiziqish bildirdilar va universitet bazasini yuqori baholadilar.

O'tgan yilning sentyabr oyida kompaniya “Uzenergoengineering” kompaniyasi bilan birgalikda O'zbekistonda o'z faoliyatini boshladi.

Assystem Engineering and Operations Services dunyoning 14 mamlakatida “innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda” barcha turdagi elektr tarmoqlari va energiya inshootlarini loyihalashga bag'ishlangan frantsuz tashkiloti hisoblanadi. U dunyodagi uchta yirik xalqaro atom energetikasi kompaniyalaridan biri bo'lib, murakkab va qat'iy tartibga solinadigan sohalarda 50 yillik tajribaga ega.

“Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari va bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash asosan” O'zavtosanoat”, “O'zbekenergo”, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi,” Lukoyl “,” Inter Engineering “, NKMK, AGMK kabi tashkilotlarda, qurilish va axborot texnologiyalari kompaniyalarida amalga oshiriladi. Fransiyaning Uzenergoengineering-Assystem kompaniyasi bilan hamkorlik bizning talabalarimizni ish bilan ta'minlash uchun ham, mamlakatimizda energetika sohasini rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlarni ochib beradi “, – deydi TTPU

marketing bo'limi boshlig'i Oybek Jo'rayev.

Yaqin orada kompaniya va universitet o'rtasidagi hamkorlikning boshlanishi kutilmoqda.







Respublikamizda Xalqaro taqsimlangan fizika olimpiadasi – “International Distributed Physics Olympiad-2020” uchun tanlov qay tarzda o‘tkazildi?

□□Xalqaro taqsimlangan fizika olimpiadasi-2020 da qatnashish uchun O‘zbekiston jamoasini shakllantirish maqsadida tanlov 3 bosqichda o‘tkazildi.

1□□– bosqichda barcha fizika yo‘nalishida o‘z bilimini sinab

ko'rmochi bo'lgan **16 yoshdan-18 yosh oraliq'idagi ishtirokchilar** onlayn test topshirdilar. Natijalarga ko'ra ishtirokchilar ichidan 20 nafari saralab olinib 2 va 3 – bosqichga taklif etildi.

2-bosqich oflayn shaklda **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti binosida** bo'lib o'tdi. Barcha ishtirokchilarga bilimlarini ko'rsatish uchun masalalar va laboratoriya ishi berildi. Ushbu bosqich so'ngida har bir ishtirokchi universitet tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi. "Ushbu sertifikat Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga kirish imtixonlarida abituriyentlarga imtiyoz kuchiga ega bo'ladi",- dedi universitet rektori J. Sh. Inoyatxodjaev.

3-bosqich esa oflayn shaklda **Prezident maktabida** bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar ichidan eng yuqori ball to'plagan besh nafari saralab olindi va ularga Xalqaro taqsimlangan fizika olimpiadasida O'zbekiston jamoasi nomidan qatnashishga yo'llanma berildi.

Ular ichida Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti 1-bosqich talabasi **Yusufov Meronshoh** ham bor (saralash bosqichida 3-o'rin).

Xozirgi paytda ishtirokchilarni bilimlarini yanada oshirish maqsadida sohadagi professor-o'qituvchilar tomonidan nazariy va laboratoriya darslari olib borilmoqda.

Xalqaro taqsimlangan olimpiada-2020 7-15 dekabr' kunlari Toshkent shahridagi prezident maktabida oflayn tarzda bo'lib o'tadi. Bu yili olimpiadada 80 dan ortiq davlat jamoalari o'z mamlakatidan turib ishtirok etadi va tashkilotchi Moskva fizika-texnika instituti (MFTI) tashabbuskorligi va onlayn nazorati ostida o'tkaziladi. Yakuniy Xalqaro bosqich ikki bosqichda o'tkazilib, birinchi bosqichda ishtirokchilarga 3ta masala yechish uchun 5 soat vaqt, ikkinchi bosqichda eksperimental masala, ya'ni laboratoriya ishi uchun 4 soat

vaqt beriladi.

□□Talabamizga va barcha O'zbekiston nomidan qatnashayotgan ishtirokchilarga omad yor bo'lishini tilab qolamiz!

Bu yil “UzAuto Mustaqillik Kubogi” da kim g'olib bo'ldi?

□□“UzAuto Mustaqillik Kubogi” – bu har yili AK “O'zavtosanoat”ning barcha korxonalari xodimlari o'rtasida o'tkaziladigan futbol chempionati hisoblanadi.

□“UzAuto Mustaqillik Kubogi-2020” chempionati natijalariga ko'ra finalda “Avtosanoat Cepla” MChJ QK jamoasi bilan kuch sinashgan holda professor-o'qituvchilar va ma'muriyatdan iborat Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti jamoasi 4:0 hisobi bilan g'olib bo'ldi.

□G'oliblarimizni tabriklaymiz! TTPU jamoasi bizning faxrimiz!

□E'tiboringizga final uchrashuvidan parchalarni taqdim etamiz!

↓□

Italiya elchisi Toshkent

shahridagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurdi.

Bugun, 19 noyabr kuni, Italiyaning Toshkentdagi elchisi Agostino Pinna Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida oliy o'quv yurti vakillari elchini universitet faoliyati, ma'muriyati va universitet binolari bilan tanishtirdilar.

Muzokara davomida hamkorlikni yanada rivojlantirish rejalari ham muhokama qilindi.

Umid qilamizki, ushbu uchrashuv Italiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash uchun yana bir qadam bo'ladi!

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti davlatimiz bayrog'i qabul qilingan kun bilan tabriklaydi!

Mamlakat bayrog'i bu oddiygina timsol emas, balki butun bir millat faxri hisoblanadi. U mamlakatning tarixi va mafkurasi

haqida aytib turadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan bo'lib, u xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining ramzi hisoblanadi.

Davlatimiz bayrog'i doimo baland ko'tarilsin! Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin! Vatanimiz kelajagi porloq bo'lsin!

Bitiruvchilarimiz bizning faxrimiz va kuchimizdir!

O'zbekistonning umidli yoshlaridan biri, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti bitiruvchisi Jasur Gayratov haqidagi teledasturni tomosha qiling!

Doktorantlar uchun yangi imkoniyat!

□Talabalarimiz – bizning faxrimiz□!

□Universitetimiz talabasi Axmedova Mariyamni O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan “Uyda qoling va ijod qiling” onlayn ko‘rik-tanlovida “Eng yaxshi grafik asar” nominasiyasi bo‘yicha g‘olib deb topilganliklari bilan muborakbod etamiz va ularni kelgusi ijodiy ishlarida zafarlar tilab qolamiz!□

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti bitiruvchisi «Innovasion g‘oyalar yetakchisi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Joriy yil respublika miqyosida 428 ta loyihalar bir nechta bosqichda ko‘rib chiqilgan bo‘lib, yakunida Respublika Komissiyasi a‘zolari tomonidan har bir hududdan eng munosib 14 nafar nomzodlar «Innovasion g‘oyalar yetakchisi» ko‘krak nishoni g‘olibi deb topildi.

G‘oliblar safida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining bakalavr va PhD doktorantura bitiruvchisi Mirzaliev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li ham bor.

6 noyabr’ kuni O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi binosida g‘oliblarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. G‘oliblarni O‘zbekiston Respublikasi Innovasion

rivojlanish vaziri Ibroxim Yulchievich Abdurahmonov va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi raisining birinchi o'rinbosari Akmal Muradovich Jumaboev tabrikladilar.

Marosimda bitiruvchimiz Mirzaliev Sanjar so'zga chiqib, berilgan ushbu yuksak ishonchni kelgusidagi ishlar bilan davom ettirishga oid o'z fiklari bilan o'rtoqlashdi.

Bitiruvchilarimiz, sizlar bilan fahrlanamiz va sizlarning kelgusi ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

Endilikda Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari 2-kursni tamomlab, o'qishini AQShdagi Pittsburg universitetida davom ettirishlari mumkin. Universitetlar bu borada maxsus «2+2» dasturini ishlab chiqdi.

2 noyabr kuni ayni mavzuda tomonlar o'rtasida onlayn muloqot bo'lib o'tdi. Unda rasmiylar bilan birga Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari ham ishtirok etdi.

Onlayn muloqot davomida talabalarga «2+2» dasturining mazmun-mohiyati, Pittsburg universitetiga kirish shartlari va talablari hamda o'qish davomida va o'qishni tamomlagandan keyingi imkoniyatlar haqida ma'lumot berildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha ham javob olishdi.

Pittsburg davlat universiteti vakilining aytishicha, talabalar o'qishni tamomlab, AQShning nufuzli kompaniyalarida ishlash imkoniyatiga ham ega bo'lishadi.

«Chet ellik talaba diplomini qo'lga kiritganlaridan so'ng, AQShda 3 yil davomida talabalik vizalari bilan nufuzli kompaniyalarda ishlashlari mumkin. Har yili Pittsburg davlat universiteti "job fair", ya'ni mehnat yarmarkalari bo'lib o'tadi. Ularda 200ga yaqin mahalliy kompaniyalar Pittsburg universitetini yaxshi baholar bilan bitirgan talabalar bilan mehnat shartnomalarini tuzib, o'z kompaniyalariga olib ketishadi», – deydi universitet vakili.

Turin politexnika universiteti rektori Jamshid Inoyatxodjaevning aytishicha, endilikda talabalar AQShning nufuzli universitetlarida o'z malaka va tajribalarini oshirib, mashinasozlik bo'yicha yetakchi mutaxassisga aylanishadi.

«Ushbu dastur 2018 yilning may oyida Pittsburg davlat universiteti va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida ishlab chiqildi.

Endilikda, talabalarimiz 2-kursni yakunlab, o'qishni AQShda davom ettirishlari mumkin. Bu – bizning katta yutug'imiz. Chunki endilikda talabalarimiz mashinasozlik sohasida o'z bilim va tajribalarini oshirib, kelajakda O'zbekistonda mashinasozlik rivojiga o'z hissasini qo'shadi degan umiddamiz», – deb ta'kidladi universitet rektori Jamshid Inoyatxodjaev.

*Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
Matbuot xizmati*

Innoweek.uz onlayn ko'rgazmasiga tashrif buyurish bo'yicha video- yo'riqnoma

Hurmatli ko'rgazma mehmonlari!

E'tiboringizga [Innoweek.uz](https://innoweek.uz) halqaro xaftaligi doirasida bo'lib o'tayotgan onlayn ko'rgazmadagi universitetimiz povelioniga tashrif buyurish bo'yicha video-yo'riqnomani taqdim etamiz.